

**METABOLIK SINDROMDA GEPATOBILIAR TIZIM HOLATI VA  
ANIQLANGAN O‘ZGARISHLARNI YANGI O‘SIMLIK  
PREPARATLARI BILAN KARREKSIYALASH**

*Olimova Madinabonu Maxmudovna*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

*Davolash ishi yo‘nalishi 5-kurs talabasi*

*Qadamboev Bekzod Bekp‘latovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

*Tibbiy va biologik kimyo kafedrası assistenti*

Ilmiy rahbar: Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tibbiy va biologik kimyo kafedrası PhD, Dotsenti Kurbanova Nodira Navruzovna

**Kirish.** Metabolik sindrom – bu bir qator 155ermentat buzilishlarni o‘z ichiga olgan holat bo‘lib, unda ortiqcha vazn, gipertoniya, giperglikemiya va dislipidemiya ko‘p uchraydi. Bu holatlar o‘z navbatida, yurak-qon tomir kasalliklari va jigar faoliyatining buzilishlariga olib kelishi mumkin. Metabolik sindromdagi asosiy gepatobiliar o‘zgarishlar, eng avvalo, mayda yog‘ tomchilarining yig‘ilishlari va jigarning yog‘ bosishi (steatoz) bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotlar va klinik tajribalarga asosan, salvifalin gepatobiliar tizimdagi o‘zgarishlarni yaxshilashga va 155ermentat sindromga oid ko‘plab muammolarni davolashga katta umidlar beradi.

Eksperimental 155ermentat sindrom rivojlanishida hujayralarning 155ermentat metabolizmi izdan chiqishi, mitoxondriyada ATF sintezi kamayib ketishi va to‘qimalarda energiya yetishmovchiligi aniqlangan. Bunday strategiya gipoglikemik birikmalarni aniqlashni, ularning mitoxondriya darajasidagi buzilishlarni korreksiyalashni va qandli diabetni oldini olish va davolashning yangi samarali usullarini ishlab chiqishni taqazo etadi. Metabolik sindromda gepatobiliar tizimning holati va aniqlangan o‘zgarishlar, shuningdek, yangi o‘simlik preparatlari – salvifolin bilan tiklash mavzusi juda muhim va murakkabdir.

Salvifolin — bu tabiiy o‘simlik asosidagi 155ermentat bo‘lib, 155ermentat sindromning o‘zgarishlariga, shu jumladan, jigarning yalig‘lanishini kamaytirishga, mahsulotlarni singdirish jarayoniga yordam beradi.

**Tadqiqot maqsadi.** Eksperimental 155ermentat sindrom modelida kalamushlar ichki a‘zolari mitoxondriyalarining membranaviy buzilishlarida o‘simlik moddalaridan salvifolin bilan korreksiyalashdan iborat.

**Materiallar va usullar.** In vitro tajribalarimizda salvifolinning gepatobiliar tizimi va oshqozon osti bezi mitoxondriyalariga ta'siri o'rganildi.

**Tadqiqot natijalari.** Olingan natijalarga ko'ra, kalamush gepatobiliar tizimi va oshqozon osti bezi mitoxondriyasi bo'kishini, 10 mkm salvifolin, nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda,  $12,5 \pm 1,4\%$  va  $18,7 \pm 2,15\%$  ga, 100 mkmda esa  $68 \pm 5,2\%$  va  $84,25 \pm 5,8\%$  ga ingibirlashi aniqlandi. Salvifolinning 150 mkm konsentrasiyasi gepatobiliar tizimi va oshqozon osti bezi mitoxondriyalari holatini, nazorat guruhidagilarga nisbatan mos ravishda  $79,1 \pm 5,8\%$  va  $93,6 \pm 7,4\%$  ga ingibirlashi aniqlandi. Salvifolinning kalamush gepatobiliar tizim va oshqozon osti bezi mitoxondriyasini yarim maksimal ingibirlovchi konsentrasiyasi mos ravishda  $IC_{50} = 45,6 \pm 3,8$  mkm va  $IC_{50} = 27,9 \pm 2,3$  mkm ni tashkil etdi.

Shunday qilib, salvifolinning o'rganilgan 10-150 mkm konsentrasiyalarida gepatobiliar tizim va oshqozon osti bezi hujayralari mitoxondriyasining bo'kishiga ta'sir etib, mitoxondriyalar o'tkazuvchanligini ingibirlashi aniqlandi.

Salvifolinning 20 – 100 mkm diapazondagi konsentrasiyalari gepatobiliar tizim va oshqozon osti bezi K/ATF-kanalini qisman faollaganligi aniqlandi.

Olingan natijalarning ko'rsatishicha, salvifolin in vitro sharoitida gepatobiliar tizim va oshqozon osti bezi K/ATF kanalini faollaydi.

Metabolik sindromga oid gepatobiliar buzilishlarni davolashda, salvifalin o'zining faol moddalari bilan jigarning funksiyasini tiklashga yordam beradi. Preparatni qo'llash jigarni yog' bosishini, yallig'lanishini va toksik ta'sirlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Salvifolin kabi tabiiy preparatlar 156ermentat sindromga qarshi kurashda potensialga ega. U jigarning yog'lanishini kamaytirish va 156ermentat buzilishlarni olishda katta rol o'ynaydi. Amalga oshirilgan korxonalar va klinik tekshirishlar natijalari buning samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.